

XIX ASRDA BUXORO AMIRLIGI QO'SHINING TUZILISHI, QUROLLANISHI VA HARBIY BOSHQARUV TIZIMI

Iskandarova Mahliyo Quvandiq qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr davomida Buxoro amirligi qo'shinining tarkibi, harbiy boshqaruv tizimi, qurollanish darajasi, sarbozlar va xalq lashkarining faoliyati, artilleriya hamda muntazam qo'shirlarning shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, amir Doniyol va amir Nasrulloxon davridagi harbiy islohotlar, qo'shin tarkibidagi harbiy unvonlar, harbiy musiqachilarning o'rni, qo'shin ta'minoti va Rossiya bosqini arafasidagi Buxoro harbiy kuchlarining holati yoritilgan. Tadqiqot Buxoro amirligi harbiy tizimining kuchli va zaif jihatlarini tarixiy manbalar asosida ochib beradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, XIX asr, qo'shin, sarbozlar, navkarlar, artilleriya, to'pchilar, lashkarboshi, yuzboshi, mingboshi, qurol-yarog', harbiy islohot, Nasrulloxon, Doniyol amir, muntazam qo'shin, xalq lashkari, harbiy musiqa, harbiy boshqaruv, mudofaa tizimi.

Kirish. XIX asr 30-yillarida Buxoro amiri qo'shinida 19 mingga yaqin yollangan askarlar bo'lib, ular turli shahar va istehkomlarda harbiy xizmatni o'taganlar. Qo'shin askarlari, asosan, kamon, nayza, qilich, xanjar, oybolta kabilar bilan qurollangan. Manbalar amir qo'shinida piltali miltiqlar va kichik to'plar ham bo'lganligidan guvohlik beradi. Amir qo'shinining jangovarlik darajasi past edi. Askarlar harbiy mashqlarga nisbatan ko'proq mehnat bilan band bo'lardi.

Adabiyotlar tahlili. XIX asrda Buxoro amirligining harbiy-ma'muriy boshqaruvi, qo'shin tarkibi va qurollanish darajasini o'rganish Markaziy Osiyo xonliklari tarixining harbiy-siyosiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Amirlikning ichki harbiy tuzilishi, qo'shin turlari (sarboz, sipoh, navkar) va harbiy unvonlar haqida eng qimmatli birlamchi ma'lumotlar Buxoro xonligi saroy tarixchilari tomonidan qoldirilgan.

Mirzo Shams Buxoriy va Muhammad Ya'qub danyolbiy og'aliq kabi mualliflarning asarlarida mang'itlar sulolasining harbiy yurishlari va mudofaa tizimi aks etgan.

Ayniqsa, Mirzo Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya" (Mang'itlar sulolasi tarixi) asari XIX asr oxiri — XX asr boshidagi Buxoro qo'shinining ahvoli, qurollanish darajasi va Rossiya imperiyasi bosqini davridagi harbiy muammolarni realistik yoritgani bilan ajralib turadi.

Metodologiya. Amirlik qo'shinining tuzilishi va qurollanish darajasi qo'shni Xiva va Qo'qon xonliklari hamda mintaqaga kirib kelayotgan Rossiya imperiyasi armiyasi bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, asrning birinchi yarmi (an'anaviy qo'shin) va

ikkinchi yarmi (rossiya bosqinidan keyingi va harbiy islohotlar davri) o'rtasidagi tafovutlar qiyoslandi.

Buxoro amirligi harbiy boshqaruvi yaxlit bir tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda boshqaruv iyerarxiyasi (Amir - Otaliq - Devonbegi - To'pchiboshi - Qurboshi-Yuzboshi) va qo'shinning ichki tuzilishi (sarbozlar, sipohiyalar, to'pchilar) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, subordinatsiya va funksional vazifalar tizimlashtirildi.

Natijalar va muhokama. Sipohlikka 15 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar olinardi, qo'shin safida keksayib qolganlar anchagina bo'lardi. Amirlikning yillik daromadi 2 mln 300 ming so'm bo'lgani holda, uning 1 mln 300 ming so'mi qo'shinni saqlashga sarflanardi. XIX asr o'rtalarida askarlar soni, piltali miltiq va to'plar ham anchagina ko'paygan. Qo'shinda yuzboshi, mingboshi singari harbiy lavozimlar bo'lib, umumiy qo'mondonlikni lashkarboshi boshqargan. Amirlikning qo'shini muntazam bo'lmay, zaruriyat bo'lganda to'planardi. Bu amirlikning zaiflik omillaridan biri edi. Hukmdor qarorgohini tunda qo'riqlagan soqchilar boshlig'i darbon deb nomlangan. Darbon amir hokimiyati uchun xavfli shaxslarni tergov qilish ishlari bilan ham shug'ullangan. Qushbegi bilan darbon har qanday vaziyatda ham arkni tark etmasliklari shart bo'lgan.

Buxoro hukmdori amir Doniyolning qo'shini 10 ming kishini tashkil etgan. Faqat navkarlarning bir qismi pilta miltqlarga ega bo'lib, qolganlari nayzalar va qilichlar bilan qurollangan. Hatto XIX asrning boshlarida ham kamonlar keng tarqalgan edi. Ayrim navkarlar javshon (zirh) kiyib, temir yoki teridan yasalgan qalqonlarga ega bo'lganlar. Amir Doniyol qo'shini artilleriyaga - g'ildirakli beshta to'qqiz funtli, ikkita besh funtli, sakkizta uch funtli to'plarga va beshta mortiralarga ega bo'lgan. Katta to'plar ho'kizlar qo'shilgan aravalarda olib yurilgan. Otish uchun piltalar uzun xodalarga bog'langan va uzoqroqqa o'tib porox yoqilgan. To'plar aravalarga mahkam bog'langan, ko'p hollarda arqonlar uzilib ketgan va to'plar yerga qulab tushgan. Har bir to'pdan bir kunda 5-6 marta otish mumkin bo'lgan. Urush davrida qamal qilish ishlarini va boshqa vazifalarni bajarish uchun dehqonlardan (qoracherik, qoraqozon, qizilquyruq) yordamchi xalq lashkarlari yig'ilgan. Odatda dehqonlar qurol- yarog'larga ega bo'lmaganlar va urushga ketmon va belkuraklar bilan kirganlar. XIX asr boshlarida Buxoro xonligida 3600 tagacha navkarlar bo'lgan. Ularning bir qismi Buxoroda yashagan va professional jangchilardan tashkil topgan bo'lib, otishda va nayza irg'itishda ularga teng keladiganlar bo'lmagan. Boshqalari turli viloyatlarda o'z yerlarida turganlar. Urush davrida ular beklari qo'l ostida bo'linmalarga yig'ilganlar va amirning qo'shiniga birlashganlar. Amirlar va ularning yaqinlari navkarlarning tartib- intizomlarini doimo nazorat qilib turganlar.

Chap qanotni Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida yashaydigan mang'itlar, qutchilar egallashgan. O'ng qanotga esa naymanlar, qirq do'rmon, qoraqalpoq va turkmanlar joylashtirilgan. Buxoroda doimiy piyodalar qo'shini 1837- yilda yaratildi va sarbozlar qo'shini nomi bilan yuritildi. 2000 kishilik otryad kalta qizil mundirlar, oq shalvarlar, telpaklar kiyib yurganlar va nayza pichoqli miltqlar, qilichlar va to'pponchalar bilan qurollanganlar. Sarbozlarni dehqonlardan, hunarmandlardan va

asirlardan tanlab olganlar. Har kuni ularni safda yurishga va miltiqlar bilan mashq bajarishga o'rgatganlar. Ular o'z oilalari bilan shahar chekkasida yashaganlar va xizmatdan bo'sh vaqtlarida xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganlar. 1837-yilda artilleriya (to'pchilar) bo'linmalari yaratilgan.

Markaziy Osiyo xonliklaridagi qo'shin tarkibida musiqachilar ham bo'lgan. Ular turli musiqa asboblari yordamida qo'shinni jangga chorlar, g'alabalarni musiqa yordamida e'lon qilar, askarlarning ruhiyatini ko'tarishga xizmat qilar edilar. Masalan, 1837-yilda Buxoroda tashkil etilgan muntazam sarbozlar qo'shini tarkibida ko'plab musiqachilar mavjud edi. Jumladan, 700 kishilik sarbozlar va to'pchilar bo'linmasida 14 do'mbirachi, 14 ta surnaychi va 6 ta karnaychi bilan bir qatorda, 2 ta turkcha do'mbira va to'rtta karnaychi mavjud bo'lgan. harbiy musiqachilar doimiy qo'shin tuzilgan vaqtdan boshlab tashkil qilingan. 40 kishidan iborat musiqachilarga yuzboshi unvonidagi kapelmeyster (harbiy orkestr dirijyori) boshchilik qilgan. Harbiy musiqachilari yurishlar vaqtida sarbozlar bilan barobar haq olganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, harbiy musiqachilarga bo'lgan e'tibor va ularning ta'minoti askarlar ta'minoti bilan deyarli bir xil bo'lgan.

Sarbozlar qo'shinlari va XIX asr o'rtalarida 80 ta to'pga yetgan artilleriya qo'shinlari amir Nasrulloxon (1826-1860) urushlarida va qal'alarni qo'riqlashda o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu amirning Buxoro xonligida markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun kurashdagi asosiy kuchi edi. Lekin cheklangan iqtisodiy zaxiralar unga piyodalar va artilleriyani ko'paytirish hamda doimiy kavaleriyani yaratish imkoniyatini bermadi. Doimiy kavaleriyani yaratishga to'sqinlik qilgan narsa, oldindan xizmat qilib kelgan harbiy boshliqlarning o'z yerlarini va eskirgan vaqtinchalik qo'shinni saqlab qolish uchun qilgan harakatlari bo'ldi. Ruslarning bosqinchiligi boshlangan paytda Buxoro qo'shinida jangchilarning soni taxminan 40-50 ming kishini tashkil etgan. Qo'shin ikki guruhga: doimiy qo'shin va muvaqqat qo'shin – urush paytida xonlik aholisidan yig'iladigan xalq lashkariga bo'lingan. Buxoro qo'shini qurol-yarog'larini piltalarga, juda oz miqdorda kertik stvolli mil- tiqlar, qilichlar, to'qmoqlar, nayzalar, harakatsiz lafetlarga o'rnatilib, bir yo'nalishga yadrolar bilan otadigan oddiy, eskirgan artilleriya tashkil etgan.

1842-yilda Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi, uning harbiy qudratiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buxoro amiri mag'lub tomonning harbiy qudratiga putur yetkazib, qo'lga tushgan qurol-aslaha va boshqalarni amirlik hududiga jo'natdi. Buni «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» asari muallifi ham tasdiqlab, shunday qayd etadi: «Bahodirxon (amir Nasrullo) tamomi to'p, to'pxona, asbob va yarog' va xazinani olib, Buxoroga murojaat qildi».

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko'ngillilari va qo'shinnlardan saralab olingan xos lashkari bo'lgan. Lashkarga to'pchiboshi (to'pchilashkar) rahbarlik qilgan. Biroq XIX asr oxiriga kelib, amir lashkari shoshilinch yig'iluvchi, yomon ta'lim ko'rgan va qoloq harbiy qurollar bilan ta'minlangan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi zarur

bo'lganda Ark qarshisida namoyishga yig'ilish edi. Lashkar amalda XIX asr boshlaridan beri rivojlanmagan, harbiy ish va qurollari o'ta qoloq holatda edi. Lashkarning soni 11 ming sarboz va 200 zobitdan iborat bo'lib, ularning qurol-aslahasi 1000 ta berdanka miltig'i va bir nechta to'plardan tashkil topgandi. Harbiy asirlarni muntazam qo'shin safiga jalb etish ham qo'llanilgan.

Jumladan, Buxoro amiri Nasrulloxon muntazam qo'shin uchun 800 kishini sarboz va 250 kishini to'pchilar bo'linmasiga askar sifatida qabul qilgan. Ularga berilgan qurol-yarog' va kiyim-bosh amirga qarashli bo'lib, muntazam qo'shin safida xizmat qilgan askarlar o'z shaxsiy qurollariga ega bo'lmaganlar. Buxoro harbiy kuchlarining asosini tashkil etgan sarbozlar tarkibiy jihatdan bir qancha qismlardan tashkil topgan edi. XIX asr o'rtalariga oid tarixiy ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, jami 700 kishidan iborat sarbozlar har biri 100 talik 7 ta dastaga bo'lingan edi. O'z navbatida har bir dasta 2 ta nim dastaga, 4 ta rassadga va 8 ta baraga bo'lingan. Yuz kishidan iborat harbiy dastani yuzboshi boshqargan. Ushbu boshqaruvda yuzboshiga uning yordamchisi qorovulbegi yordam bergan. «Rassad»larni panjaboshi boshqargan. harbiy qismni boshqarishda bu mansab egasiga uning muovini-panjaboshi-xurd yordam bergan. Sarbozlarning o'n kishidan iborat qismiga «dahboshi» boshchilik qilgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, XIX asrda Buxoro amirligi harbiy tizimi davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, uning asosiy qismi muntazam bo'lmagan xalq lashkaridan iborat edi. Amir Nasrulloxon davrida sarbozlar qo'shini va artilleriyaning tashkil etilishi harbiy islohotlarning muhim bosqichi bo'ldi. Biroq qo'shinning eskirgan qurol-aslahalar bilan ta'minlangani, zamonaviy harbiy tayyorgarlikning sustligi, doimiy otliq qo'shin tashkil etilmagani hamda iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi amirlik harbiy salohiyatini zaiflashtirdi. Shuningdek, qo'shin tarkibidagi boshqaruv tizimi va harbiy unvonlar aniq yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, zamonaviy harbiy texnika va taktikalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada ortda qolgan edi. Natijada XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi bosqinchiligi davrida Buxoro amirligi qo'shini zamonaviy qurollangan qo'shinlarga qarshi samarali qarshilik ko'rsata olmadi. Shu bilan birga, sarbozlar qo'shini, artilleriya bo'linmalari va harbiy musiqachilar faoliyati Buxoro amirligi harbiy tarixining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davurova Sh.H. Buxoro amirligiga oid manbalarda mansab va lavozimlar haqidagi ayrim ma'lumotlar, 2019. 176-b.
2. Karimov. B.D. Mang'itlar sulolasining Qashqadaryo vohasida olib borgan boshqaruv siyosati QarDU xabarlari. Qarshi, 2022, - Maxsus son 58-62 b. OAK
3. Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari. 2006. 89-90 b.

4. Dadaboyev X.V. Harbiy san'at tarixi, 2013, 416-b.

5. Samarov.R.S va boshqalar, O'zbekiston tarixi. VIII jild. O'zbekiston harbiy san'ati tarixi. Toshkent: «Ma'naviyat», 2023. 319-323 b.

6.O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha)/ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ; mas'ul muharrir: D.X. Ziyayeva/- Toshkent: Sharq, 2012. 127-b